

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MOLIYA TERMINLARINING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xasanova Qunduzxon Otajon qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti Xorijiy Filologiya fakulteti

Qiyosiy tilshunoslik va lingvistik tarjimashunoslik

magistratura yo'nalishi talabasi.

Ilmiy rahbar: DSc, prof. **Siddiqova I.A.**

Annotatsiya: Til jamiyatning o'z fikrlarini, tajribalarni va madaniyatini yetkazishning asosiy vositasidir va u ko'plab sohalarda, masalan, moliyaviy sohada, murakkab iqtisodiy tushunchalarni bayon etishda ahamiyatli rol o'yinaydi. Ingliz va o'zbek tillarida moliyaga oid juda ko'plab terminlarni uchratishimiz mumkin. Ularni o'rganish jarayonida esa morfologik jihatdan, ya'ni tuzilish jihatdan tahlil qilish muhim ahahmiyatga ega hisoblanadi.

Kalit so'zlar: moliya, atamalar, morfologik xususiyatlar, sodda, qo'shma, broker, affiksatsiya, valyuta.

Morfologik tahlilning bir ko'rinishi sifatida so'z tarkibi bo'yicha tahlilni keltirishimiz mumkin. Ya'ni biz bunda sodda va qo'shma so'zlarni ko'rib chiqamiz. Sodda so'zlar – bu bir o'zakdan iborat yoki so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida yasalgan so'zlar hisoblanadi va ular ham o'z navbatida ikkita guruhga ajratiladi: sodda tub va sodda yasama so'zlar.

Qo'shma so'zlar deganda esa ikki yoki undan ortiq o'zaklardan hosil bo'lgan so'zlarga aytiladi.

Ingliz va o'zbek tili o'zaro qarindosh bo'limgan, ya'ni bir oilaga mansub bo'limgan tillar hisoblanadi va shu boisdan ular o'rtasida lingvistik jihatdan bir qator farqli va qisman o'xshash jihatlar mavjud deb aytishimiz mumkin. Morfologik xususiyatlarga ko'ra esa ikkala tilda ham sodda va qo'shma so'zlar mavjud va biz ularni moliyaviy terminlar, ya'ni atamalar misolida ko'rib chiqamiz.

O'zbek tilidagi moliyaga oid atamalarni o'rganish jarayonida bir qator sodda so'zlarga duch keldik. Jumladan, o'zbek tilidagi sodda tub so'zlarga quyidagi terminlarni misol keltirish mumkin:

- Diler – moliyaviy aktivlar savdosidagi vositachi;
- Auksion – ommaviy savdo-sotiq bo'lib, unda sotilaётган mol-mulk eng yuqori bahoni bergen shaxs tomonidan qo'lga kiritiladi;
- Broker – moliyaviy aktivlar savdosidagi vositachi (dallol).

O'zbek tilida yana ko'plab sodda tub moliyaviy atamalarni sanab o'tishimiz mumkin. Masalan, *kredit, qarz, pul, bank, tanga, savdo, hisob, daromad, foyda* va boshqalar. Ular tarkib jihatdan qismlarga bo'linmaydigan bitta morfema, ya'ni o'zakdan tarkib topgan hisoblanadi.

Ingliz tilida ham moliyaga oid juda ko'plab sodda tub so'zlar, terminlar, mavjud va quyida ular bilan tanishamiz:

- Coin – oltin, kumush yoki misdan yasalgan, odatda aylana ko'rinishida bo'lgan pul birligi, o'zbek tilida xuddi shu ma'noda "tanga" so'zi qo'llaniladi.

- Money- bu shunday maxsus tovarki, u hamma boshqa tovarlar uchun umumiy ekvivalent vazifasini bajaradi, o'zbek tilida xuddi shu ma'noda "pul", "valyuta" terminlari qo'llaniladi.
- Budget - muayyan vaqt davomida daromad va xarajatlarni baholash.

Ingliz tilida ham bir qator sodda tub ko'rinishdagi moliyaga oid terminlar mavjud. Jumladan, *asset, profit, gain, loan, debt, bills, capital, cash, interest, debit, credit, balance* va boshqa atamalar.

Tilshunoslikda sodda yasama so'zlarni affiksatsiya usulida yasalgan so'zlar deb atashimiz mumkin. So'z yasovchi qo'shimcha, affiks, yordamida yasalgan o'zbek tilidagi moliyaga oid terminlarga quyidagilar kirdi:

O'zbek tilining terminologik sistemalarida -lik qo'shimchasi faol termin yasovchi qo'shimchalardan biri hisoblanadi. Xususan, E.A. Begmatov ham -lik o'zbekcha so'zlarni hosil qiluvchi eng faol morfemalardan biri ekanligini ta'kidlaydi.

-lik qo'shimchasi bank-moliya terminologiyasida ham o'zbek adabiy tilidagi singari ancha faol. Buni quyidagi terminlarning yasalganligida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin: agentlik, agentliklar, alternativlik (muqobililik), antrepreneurlik (tadbirkorlik), likvidlik, g'aznachilik.

Ingliz tilida ham affiksatsiya usuli yordamida so'zlar yasaladi. Jumladan, financial, growth, savings, income, investment, dividend, accumulation va boshqalar.

Ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarga esa quyidagilarni misol keltirish mumkin:

- Currency exchange – valyuta ayirboshlash;
- Credit card – kredit karta;
- Profit margin – foyda ulushi kabilar.

Til jamiyatning o'ziga xos fikrlarini, tajribalarni va madaniyatini almashishning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Moliyaga oid turli terminlarning ingliz va o'zbek tillarida tahlil qilish muhimdir. O'rganish jarayonida, ularning strukturasi bo'yicha morfologik qarashlar orqali tahlil qilish, katta ahamiyatga ega.

Moliyaviy nuqtai nazardan, morfologik xususiyatlar moliya va iqtisod kontekstida qo'llaniladigan so'zlarning tuzilishi va ma'nosini tushunishda hal qiluvchi rol o'yaydi. Bu xususiyatlar pul, sarmoya, bank va turli moliyaviy faoliyat bilan bog'liq murakkab atamalarning shakllanishiga hissa qo'shadigan prefikslar, qo'shimchalar, asoslar va boshqa affikslarni o'z ichiga oladi.

Masalan, inglizcha "investment" moliyaviy atamasini olaylik. Uni morfologik jihatdan ajratib oladigan bo'lsak, "invest" so'zning o'zagi, "-ment" qo'shimchasi bilan qo'shilib, ish-harakatni bajarish natijasi yoki harakatini bildiradi. Ushbu morfologik tarkibiy qismlarni tushunish "investment" deganda daromad yoki daromad olish uchun moliyaviy harakatlarga pul qo'yish harakati yoki jarayoni degan tushunchani tushunishga yordam beradi.

Xuddi shunday, o'zbek tilida "sarmoyador" kabi atamalarni morfologik tahlil qilib, ularning tarkibiy qismlari va ma'nolarini ochib berish mumkin. Ushbu taqsimot nafaqat atamaning so'zma-so'z ma'nosini tushunishga, balki ushbu atamalar rivojlangan tarixiy va lingvistik kontekstni hamda moliyaviy sohada qanday qo'llanilishini tushunishga yordam beradi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi moliyaviy atamalarning morfologik xususiyatlarini o'rganish orqali biz bu atamalarning lingvistik nozik tomonlarini ochibgina qolmay, balki moliyaning asosiy tushunchalari va mexanizmlari haqida tushunchaga ega bo'lamiz, moliyaviy til haqidagi tushunchamizni har ikki tilda ham boyitamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 452-459.
2. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 3001-3007.
3. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 3008-3020.
4. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 4943-4952.
5. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(S1), 573-578.
6. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – C. 187-190.
7. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTTONIC DISCOURSE.
8. 1. Solovova E.N. Chet tillarni o'qitish metodikasi. Ma'ruzalarning asosiy kursi. - M.: Ta'lif, 2002 - 238 b.
9. 2. Saxarova I.I. Chet tilini o'qitish metodikasi. O'quvchi.- M.: Ta'lif, 1999 - 203 b.
10. 3. Jalolov J.. Chet til o'qitish metodikasi.-T.: O'qituvchi, 2012.-59-60 b.
11. 4. Crandall J.J. Cooperative language learning and affective factors. – Cambridge, UK: Cambridge University Press. 1999. – P. 226-245
12. 5. Ellis R. The place of grammar instruction in the second/foreign language curriculum. In E. Hinkel & S. Fotos (Eds.) New perspectives on grammar teaching in second language classrooms. – Mahwah, N.J.: Lawrence Erlbaum. 2002. – P. 17-34.
13. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory And Its Reflection In French Phraseology." *Journal of Positive School Psychology* (2022): 2883-2889.
14. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love". " Конференции. 2021.
15. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
16. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into "Historical Memory" in French and Uzbek Linguistic Traditions." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
17. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.

18. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development* 2.11 (2023): 490-492.
19. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятларо мурлоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 165-169.
20. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." *Academic research in educational sciences* 3.5 (2022): 1176-1182.
21. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 879-884.
22. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." *O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4]* (2023).
23. Ноjiyev A., O'zbek tilida qo'shma. juft va takroriy so'zlar.- T., 1963.- B.102.
24. Шодиев X., Ҳамроев М. Молия статистикаси. – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 2002. – Б.265.
25. Азрильян А.Н. Краткий экономический словарь. – Москва: Институт экономики, 2005. – С.43
26. Бегматов Э.А. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б.134.
27. Ширинова Екатерина Туракуловна. Ўзбек тили банк-молия терминологияси. – Тошкент, 2020. – Б.106.